

TARIX

Haitov Jahongir Shodmonovich

Arxeologiya va Buxoro davlat universiteti
dotsenti, tarix fanlari doktori (DSc)

TURKISTON MINTAQASIDA BOG'DORCHILIK SOHASIDAGI YANGILIKLAR TARIXIDAN (XIX ASR OXIRI - XX ASR BOSHLARI)

Annotatsiya. Ushbu maqolada ko'p sonli manbalar materiallari asosida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston mintaqasida mevali daraxtlar yangi navlarining tarqalishi tarixi haqida ilmiy mushohada yuritiladi. Turkistonda bog'dorchilik sohasidagi o'zgarishlar, mevali daraxtlar yangi navlarining keltirilishi, ularni mahalliy sharoitga iqlimlashtirish jarayoni, ular hosildorligi, bu yo'nalishda amalga oshirilgan xayrli ishlar natijalari bilan bog'liq masalalar "Turkiston to'plami"dan joy olgan xabar, ma'lumot va maqolalar tahlili orqali imkon qadar bayon qilindi.

Kalit so'zlar: Bog'dorchilik, yangi nav, mevali daraxt, hosildorlik, yarmarka, havaskor bog'bon, olma navlari, nok navlari, tabiiy ofat, temir yo'l, ko'chat maydonlari, noqulay iqlim, Bog'bonlar uyushmasi.

ИЗ ИСТОРИИ САДОВОДЧЕСКИХ НОВОСТЕЙ ТУРКЕСТАНСКОГО КРАЯ (КОНЕЦ XIX – НАЧАЛО XX ВЕКА)

Аннотация. В данной статье на основе материалов многочисленных источников представлено научное исследование истории распространения новых сортов плодовых деревьев в Туркестанском крае в конце XIX – начале XX вв. Вопросы, связанные с изменениями в области садоводства Туркестана, внедрением новых сортов плодовых деревьев, процессом их акклиматизации к местным условиям, их продуктивностью и результатами проделанной в этом направлении работы, максимально полно освещены посредством анализа новостей, сведений и статей «Туркестанского сборника».

Ключевые слова: Садоводство, новый сорт, плодовое дерево, урожайность, ярмарка, садовод-любитель, сорта яблонь, сорта груш, стихийное бедствие, железная дорога, питомниководческие районы, неблагоприятный климат, Ассоциация садоводов.

FROM THE HISTORY OF HORTICULTURE NEWS IN THE TURKESTAN REGION (LATE 19TH CENTURY - EARLY 20TH CENTURY)

Annotation. This article, based on the materials of numerous sources, provides a scientific study of the history of the spread of new varieties of fruit trees in the Turkestan region in the late 19th and early 20th centuries. Issues related to changes in the field of horticulture in Turkestan, the introduction of new varieties of fruit trees, the process of acclimatizing them to local conditions, their productivity, and the results of good work carried out in this direction were described as much as possible through the analysis of news, information, and articles from the "Turkestan Collection".

Keywords: Horticulture, new sort, fruit tree, fertility, Fair, amateur gardener, types of apple, types of pears, natural hazard, railway, young trees, uncomfortable climate, association of gardeners.

Kirish. Rossiya imperiyasi mustamlakasi yillarida (1867-1917-y.y.) Turkiston mintaqasiga yangi ekin navlari kirib kelib, bu o'lkada fauna va florasiga o'z ta'sirini o'tkazdi. Paxtachilik, donli ekinlar bilan birga, bog'dorchilik, polizchilik, sabzavotchilik tarmoqlarida yangi navlar joriy qilindi va tajriba- sinovdan o'tkazildi. Imperiya o'lkani o'z ta'sir doirasiga kiritgunga qadar donli ekinlar, paxtachilik, ipakchilik, qorako'lchilik kabi dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlari mahalliy aholi xo'jaligida yetakchilik qilardi.

Adabiyotlar tahlili. 594 tomidan iborat bo'lgan va Turkiston tarixi, etnografiyasi, qishloq xo'jaligi va madaniyati masalalariga oid boy manbalarni o'zida jamlagan "Turkiston to'plami"ning manbaviy ahamiyati shundaki, to'plamdan bog'dorchilikka oid, shuningdek, mevali ekinlarning o'lkada bo'ylab tarqalgan yangi navlari haqida boy ma'lumotlar olish mumkin.

Rossiya imperiyasi hukumati iqlimi qulay, vitaminlarga boy va turli-tuman mevali bog'lar yaratish mumkin bo'lgan Turkiston mintaqasida imkoniyatlarni chuqur o'rganib chiqish uchun o'z mutaxassislarini o'lkaga yubordi. Shuningdek, o'lkaning 1,5 mln desyatina (1 desyatina-1,09 ga) yerlarini sun'iy sug'orish orqali dehqonchilik qilish mumkin bo'lgan va bir necha ming desyatina (600.000 desyatina) lalmikor, dehqonchilikka qulay maydonlaridan paxta, meva va sabzavotlar yetkazish chora-tadbirlari ko'rildi [15.269-270].

Asosiy qism. "Bog'dorchilikni rivojlantirish, hashoratlarga qarshi kurash olib borish, mahalliy aholiga bu borada agrotexnik yordam ko'rsatish maqsadlarida Turkistonga avval janob Plesnevich, keyinchalik esa janob Tanatar maxsus referent qilib yuborildi. Bu mutaxassislar Turkistonda bog'dorchilik qilish uchun Qrimdan ham qulay imkoniyat bor, degan xulosaga keldilar" [12.197-198]. Butun Turkiston o'lkasi uchun 1-2 nafar mutaxassisni bog'dorchilikni yo'lga qo'yishga safarbar etish yetarli bo'lmasligini, istiqbolda Rossiya imperiyasi "Dehqonchilik deportamenti"(bo'limi) keng miqyosda bu borada ish olib borishini to'plamdagi ko'p sonli xabarlar orqali anglab olish mumkin. "Markaz" vakillari o'lkada mevali daraxtlarning ko'chatzorlarini tashkil etish, tajriba-sinov stansiyalari ochish, bu borada maxsus firmalar faoliyatini yo'lga qo'yishda tashkilotchi bo'ldilar.

1906-yildan boshlab Turkiston general-gubernatorligi markazi Toshkentda "Turkistonda qishloq xo'jaligi" ("Selskoye xozyaystvo Turkestana") jurnali chop etilishi, unda paxtachilik, asalarichilik, chorvachilik, ipakchilik, qorako'lchilik kabi xo'jalik tarmoqlari bilan birga bog'dorchilik sohasidagi o'zgarishlar va yangiliklar e'lon qilib borilganligi e'tiborga loyiq. "Turkiston qishloq xo'jaligi va sanoat Birodarligi" uyushmasi orqali yarmarkalar o'tkazilib, Turkiston, mintaqasida yetishtirilgan mevalar namoyishi tashkil etilgani ham muhimdir.

"Turkistonda qishloq xo'jaligi" jurnalida bog'dorchilik haqida mutaxassislarning tajribasi va maslahatlari bilan bog'liq ko'pgina tavsiyalar, xabar, maqolalar chop etilgan. 1900-yilda Kavkazdan Toshkent uyezdining Nikolskiy qishlog'iga ko'chib kelgan va o'zining mevali "sanoat bog'i"ni yaratgan Vasiliy Semich mazkur jurnal ma'lumotlaridan keng foydalanganligini e'tirof etadi [9.736.].

Manbalar ma'lumoticha, Turkiston qishloq xo'jaligi tajriba stansiyasida uzumning 40 ta navi, olma va nokning 80 ta navi, o'rik, abrikos, olxo'ri, qaroli, gilos kabi mevalarning o'nlab navlari yetishtirilgan. Hatto, havaskor bog'bon P.I. Xomutov tropik o'simlik hisoblangan palma daraxtini 15 yil parvarishlab yarmarkalardan birida namoyish etgan" [5.182]. XX asr boshlarida "Samarqand bog'bonlari maktabi" vakillari tomonidan imperiyaning turli hududlari (asosan Qrim va Kavkaz) va xorijdan keltirilgan Belfler, Linkolskaya bezsemyanka, Bere-Dil, Klerjo kabi olma va nok navlari mahalliy sharoitga iqlimlashtirilgan.

XX asr boshlarida uzumzorlar maydoni kengayib, uzumning yangi navlari ekiladigan maydonlar Farg'ona vodiysida yildan-yilga kengayib bordi. 1907-yilda Farg'ona viloyatining Namangan uyezdida-3000 desyatina, Qo'qon uyezdida-1960; Marg'ilon uyezdida-1580, Andijonda-880, O'shda-7 desyatina, butun viloyat bo'yicha 7430 desyatina uzum yetishtiriladigan bog'lar bo'lgan" [11.153]. Ko'rsatilgan yilda ob-havoning chang to'zonli bo'lishi va zamburug' kasali tufayli uzum hosilining miqdori past bo'lgan. Hosildorlik bir desyatina uzum bog'laridan O'sh uyezdida-480 pud (1 pud -16 kg) Andijonda -150 pud, Marg'ilonda-140 pud, Qo'qonda 45

- 10 pudni tashkil etgan, uzumning narxi bozorda o'sha yili yuqori bo'lib, 1 pud uzum –1 rubldan 2 rublgacha baholangan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida "Qishloq xo'jaligi va sanoat birdamligi" uyushmasining tashabbuskor, haqiqiy va faxriy a'zolari o'zlarining "sanoat bog'lari"ga asos soldilar. Shunday vakillardan biri S.Ya.Berdingning olma va nok mevalari parvarishlangan bog'i Toshkent shahri atrofidagi Do'rmon qishlog'ida bo'lib, 1900 yilda 8 desyatina yer maydoniga Razmarina (100 dona), Kandil-sinap (100 dona), Kassel-renat (100 dona) Orxan renat (60 dona) J.Belfler (100 dona) Tirolka (100 dona) Parmen Adams (120 dona) Oq, qishqi Kalvil (60 dona), Zelenki vuda (80 dona), Ren-de Reneta (Shafran-75 dona), Qizil qishqi Lelyever(25 dona), Kanada navi (140 dona), Oberdina (12 dona), Gezdonka (12 dona) boshqa navlar (60 dona), ja'mi: 1150 ta olma daraxti o'stirildi. Shuningdek, u qishki Dekanka (75 dona); Turne di Liver (45 dona) Olivye desert (40 dona), Bergalat Esperen (40 dona) Luiza Bon Sanye (50 dona), Sharl Konye (20 dona), Mariya Giss (35 dona) Imperial (25 dona), Dyushes de Angulem (25 dona) va boshqa navlar-60 dona, ja'mi 450 dona nok daraxtlari parvarishlagan. S.Ya.Berdin bog'idagi 1600 dona olma va nok daraxtlariga qo'shimcha ravishda 1,5 desyatina yerga 1907-yilda 285 ta Shampin reneta, Razmarin, Dekanka (qishki), Kandil kabi olma ko'chatlari o'tqazilgan " [8.723]. Birgina olma va nok ko'chatlarining o'nlab turlari haqida ma'lumot bergan ushbu manba orqali-Turkistonda bog'dorchilik rivojiga XX asr boshlarida jiddiy e'tibor qaratilganiga guvoh bo'lamiz. Turkistonda meva navlarini tanlash va o'stirish, parvarishlash bo'yicha vakil Plesnevich 1907-1909-yillarda o'zining "havaskorlar tajriba-sinov" bog' xo'jaligida, 26 desyatina maydonda olma va nokning 160 ta navini o'stirgan, ko'chatlar orasida Chexiya, Fransiya, Amerikadan keltirilgan navlar ham bo'lgan " [4.218]. Mevalarning qishki va yozgi navlari, ularni quritish orqali eksport qilish masalalari keng muhokama qilinar ekan, asosan olma, nok, uzum, shaftoli, abrikos yetishtirish, ular yangi navlarini iqlimlashtirish borasida sa'y harakatlar bo'lganligi ko'zga tashlanadi.

Turkistonda iqlimlashtirilgan Tirolka olmasi va nokning yangi navlaridan XX asr boshlarida olingan hosil miqdori va ko'rilgan daromad summasi haqida to'plamda qiziqarli ma'lumotlar keltiriladi.

Masalan Tirolka olmasi va nokdan olingan hosil hamda daromad bilan bog'liq quyidagi jadvalni keltirish mumkin " [8.725].

t/r	Yillar	Tirolka olmasi va nok mevasidan olingan hosil miqdori (pud hisobida)	Olingan daromad miqdori (rubl hisobida)
1.	1904-yil	40	200
2.	1905-yil	170	350
3.	1906-yil	1050	1500
4.	1907-yil	2400	3000
5.	1908-yil	5200	3500

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, olma va nokning yangi navlari mevasining xarididan kelgan daromad yillar davomida oshib borgan.

"Turkiston to'plami"ni varaqlar ekanmiz, uning sahifalarida olma, nok, o'rik, uzum, singari ekin navlarining hosilga kirish vaqti, har bir mevali daraxtdan olinadigan meva miqdori haqida ham keng ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Olma ko'chatlarining hosilga kirish vaqti (qishqi va yozgi olma) 6-9 yilni tashkil etsa, nok ko'chatlari 5-9 yilda hosilga kirishi manbalarda qayd etilgan.

Nokning Luiza Bon-sanye navi 5 yilda hosil bera boshlab, har bir tup daraxt 12 pudgacha meva bersa, olmaning Zelenka vuda (Renet Smirenko navi) 6 yilda hosilga kirib, bir tup daraxt 25 pudgacha olma bergan. 1908-yilda Plesnevich bog'ida ushbu tajriba sinovdan o'tkazilgan " [2.99]. Imkon qadar mevalarning uzoq saqlanadigan, shirin, suvli, kasallikka tez chalinmaydigan, quritilganda ham iste'mol uchun yaraydigan navlarini tanlash va parvarishlashga e'tibor qaratilgan. "Turkiston to'plami"dagi ma'lumotlarda Turkistonda yetishtirilgan mevalarni imperiya markaziy viloyatlariga ko'p miqdorda eksport qilish, ho'l va quritilgan, shuningdek,

arzon, shirin-shakar mevalar bilan Rossiya imperiyasi Yevropa qismi aholisini ta'minlash maqsadi mustamlakachilarning bu yo'nalishdagi siyosatining mohiyatini ifodalaydi.

Havaskor bog'bon-dehqonlar o'z yer maydonlarining bir qismida mevali ko'chatlar o'stirish pitomnigini tashkil etishgan. Toshkent uyezdi Nikolsk qishlog'ida istiqomat qiluvchi Vasiliy Semich tajribali agronom A.A.Rubsov tavsiyasi bilan 1 desyatina yerda Belfler, Parmeni, Renet Shampanskiy Renet Organskiy, Astraxanskoye beloye olma ko'chatlarini, bir necha nav nok ko'chatlarini o'tkazgan, ko'chatlar to'liq ko'karib ketgan, bittasi ham qurib qolmagan.

Ushbu shaxs ikkinchi yili 2,5 desyatina yerda Zverboyev va P.L. Gerberlardan Kandil, Sari Sinap, Blagorodnoye Krasnoye, Bismark, Tirolka, Sharshala, Belfler, qishqi Kalvil, Ovechiy Nos va bir necha nok navlarining ko'chatlarini o'stirgan. Uch yil davomida yerni o'g'itlash, bog' yaratishga tayyorlash ishlari olib borilib, bir desyatining 3/2 qismidagi yerga bog'dorchilik ilmiy bilimdonlari V.I.Turbachev va P.V.Balashevlar maslahati bilan Razmarin va Qandil olma ko'chatlari o'tqazgan.

Bog'dagi mevalarga qurt tushganida Semich qurtlarni qo'l bilan terib tashlash, sovun va maxorka qaynatilgan suv bilan daraxtlarni yuvish, supurgi bilan barglarni tozalash va hokazo usullardan foydalangan.

1907-yilda olmaning uchta navi Belfler, Rozmarin, Qandil-sinapdan 1500 dona ko'chat o'tkazgan, kartoshka makkajo'xori va poliz ekinlaridan 2 yil davomida yetarlicha hosil ololmagan.

Aksincha, malina va smorodinadan mo'l hosil olinib, "Turkistonga shon-sharaf" navli qora smorodinaning 3 xil navidan har funti bozorda 15 kop. (1908-yil) baholangan. Yovvoyi nav smorodina bilan mahalliy navni chatishtirish asosida hidsiz, mazali smorodina navi yaratilgan. [9.736-739] Shuningdek, uning bog'ida malina mevali daraxti ham parvarish qilinib, yuqori darajada hosil olingan.

XX asr boshlarida meva yetishtirish va xorijga eksport qilishda Turkiston Qrimdan keyin ikkinchi o'rinda turar edi.

1906 va 1907-yillarda uzum, olma, nok, abrikos, shaftoli, qaroli, behi singari mevalar Rossiya imperiyasiga Toshkent temir yo'l stansiyasi, Keles va boshqa stansiyalardan jo'natilgan.

Ko'rsatilgan yillarda Turkistondan jo'natilgan mevalar pud hisobida quyidagicha miqdorda bo'lgan.

Mevaning turi	1906-yil (pud hisobida)	1907-yil (pud hisobida)
Uzum	22.516.60	40.979.50
Olma	11.266.50	34.097.70
Nok	1.575.40	8.559.70
Abrikos, shaftoli va qaroli	1.038.40	2.816.20
Boshqa mevalar	2.220.50	3.637.70
Hammasi	38.617.40	90.090.80

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, uzum mevasini chiqarish birinchi o'rinda, ikkinchi o'rinni esa olma eksport qilish egallab turibdi. 1907-yilda 1906-yilga nisbatan meva chiqarish salkam 2 barobar oshgan bo'lsada, Qrimdan chiqarilgan mevalar miqdori Turkistonga nisbatan 32 barobar ko'p bo'lib, agar har ikki yilda meva eksport qilish shu tariqa ikki barobardan ko'payib borsa, Turkiston 1912 yilga kelib Qrim darajasiga ko'tarilishi mumkin bo'lardi.

1907-yilda Qrimdan xorijga Turkistonga nisbatan 5,3 barobar ko'p uzum (217.000 pud), 63,3 barobar ko'p olma (2.160.000 pud); 49,5 barobar ko'p nok (426.000 pud); 20 barobar ko'p abrikos, shaftoli va qaroli (56.000 pud) chiqarilgan. Yohud ko'rsatilgan yilda Qrimdan ja'mi: 2.859.000 pud meva eksport qilingan[14.126]. Yuqoridagi raqam bilan Turkistondan 1907-yilda chiqarilgan 90.090.80 pud mevani yonma-yon qo'yish bu borada Qrim hamon ko'p bor ustunlik qilayotganligini yaqqol ko'rsatardi. Turkistondan 1906-1907-yillarda eksport qilingan mevalar foiz taqsimoti bo'yicha uzum 45,5 foizni, olma-37,9; nok-3,1, abrikos, shaftoli va qaroli-9,5; boshqa mevalar-4 foizni tashkil etgan. R.Shrederning hisob-kitobicha butun imkoniyatlar ishga

- 12 solinib, mevalarning yangi navlaridan ilm-fan yutuqlari asosida bog'dorchilik yo'lga qo'yilsa, Turkistonda istiqbolida meva yetishtirishni yuz barobar ko'paytirish mumkin edi.

XX asr boshlarida Turkistondan eksport qilinadigan mevalar miqdori yangi nav ekinlaridan olinadigan hosil hisobiga oshib borgan, quruq mevalar chiqarish esa kamayganligi kuzatiladi. 1907-yilda 1906-yilga nisbatan Turkistondan meva chiqarish 114,03 foiz oshib, ho'l meva 136,31 foiz, uzum esa 241.03 foiz oshdi, quruq meva 22 foiz kamaygan. 1906 va 1907-yillarda ho'l meva chiqarish nisbati uzum, olma, nok, shaftoli bo'yicha 34,92,38,55 foizni tashkil etadi [15.271].

Rossiya imperiyasi markazidagi viloyatlardan ko'chirilgan rus, nemis, ukrain va boshqa millat vakillari ham o'z xo'jaliklarida mevachilik bilan shug'ullanganlar. Ular xo'jaligida donli ekinlar yetishtirish, chorvachilik, parrandachilik bilan bir qatorda olma, malina, smorodina, krijovnik kabi mevali daraxtlar parvarishlangan. Kaspiyorti viloyatiga qarashli Ashxobodagi Saratovka qishlog'ilik nemislar yangi mevali daraxtlardan mo'l hosil olishgan [1.132].

Turkiston mintaqasida iqlimlashtirilgan mevali olma daraxtlarining navlari haqida ma'lumot [7.727-730].

Yangi meva navlarining ko'chat maydonlarini yaratish, ularni mahalliy sharoitga iqlimlashtirish hamma vaqt ham kutilgan natijani bermasdi. Turkiston mintaqasidagi keskin kontinental iqlim sharoitida yangi meva ko'chatlari qurib qolishi, sovuq iqlim sharoitida muzlashi, tuproq sharoitlariga moslasha olmay hosilsizlik holati ro'y berishi, qurt-qumursqa tushishi, yomg'ir, quruq shamol, chang-to'zon tufayli ko'chatlar kasallanishi kabi ko'pdan-ko'p to'siqlar mavjud edi.

Toshkent uyezdi Nikolskiy qishlog'ida istiqomat qiluvchi rus bog'boni Vasiliy Semich 1907-yilda bozordan sotib olgan 3000 dona olma ko'chatidan 2000 donasi kolganligi, 1000 donasi quriganligi, 1908-yilda esa 1500 olma ko'chatidan 900 tasi yashab qolganligi, 600 tasini esa o'tqazish jarayonida yaroqsizligi aniqlanganligini qayd etadi. Mahalliy o'rik va shaftoli singari donakli mevali daraxtlarning ko'chatlari yangi nav mevalardan chidamli bo'lib chiqqanligi qayd etiladi [9.739].

Mevali daraxtlarning urug'lari va ko'chatlari ko'chat bozorida hamma vaqt ham yetarlicha topilmasligi, borlari ham ishonchli emasligi, Rossiya markazidan katta pud miqdorida mevali daraxtlarning urug'ini yuborish zarurligi to'plamdagi ma'lumotlarda ko'rsatilgan. Rus bog'bonlaridan biri 1908-yil mart oyi bo'lishiga qaramay "Napoleon" olma navi urug'i va ko'chatini hech qayerdan topa olmaganligini yozadi [9.738]. "Napoleon", "Rozmarin", "Kalvil" kabi olma navlarining urug' va ko'chatlariga talab katta bo'lib, ayni mavsum paytida ular taqchil bo'lib qolgan.

Bog'dorchilik sohasida yuzlab mevali daraxtlarni parvarishlash sinovdan o'tkazilgan bo'lsa-da, XX asr dastlabki o'n yilligida hali ham ular keng xo'jalik tarmog'iga kirib bormagan edi. Har yili Toshkent uyezdiga tegishli yerlarga 50 ming dona mevali ko'chat o'tqazilsa-da, 20 foiz bog'larning egalarigina faqat Turkistondagi bog'dorchilik kelajagi haqida jiddiy qayg'urardilar. Ko'pchilik bog'bonlar o'z yerlariga ko'chat qurishdan nariga o'tmasdilar. "Bog'lar barpo qilinayapti, chorva mollari uchun saroylar qurilmayati", ya'ni ko'plab mevalar iste'molchiga yetib bormay, hayvonlarga yem bo'layapti. Hamma yaxshi biladiki, jamoatchilik ishi, ya'ni "bog'bonlar ittifoqi" faoliyati xo'jako'rsinga tashkil etilgan bo'lib, Ivan Ivanovich Petr Petrovichni sevmaydi. Petr Petrovich Andrey Andreyevichni, har kim o'zini sevadi. "Bog'bonlar uyushmasi" umummanfaat uchun barchani bir joyda to'plash, uyushtirishini tashkil qilishi kerak"- deb yoziladi [10.834]" "Turkiston to'plami"da. Bu o'rinda Turkistonda yetishtirilgan mevani "dala-dasturxon" formulasida iste'molchilarga yetib bormayotganligi, olma, nok, abrikos, olucha, qaroli kabi meva zahiralari omborlarda qolib chirib ketayotganligi, yohud vaqtdan unumli foydalanmaslik va transport muammolari mevalar chirishi tufayli chorva mollariga yem bo'layotganligiga ishora qilinadi.

Tabiiy ofat ham yangi ekin navlarini, mevalar yangi turlarining maydonlarini kengaytirishga to'sqinlik qilganligi "Turkiston to'plami"da keltirilgan. Masalan, 1908-yil Namangan uyezdidagi bog'lar uchun noqulay kelib, tinimsiz yomg'ir, kuchli shamol kabi omillar tufayli mevali daraxtlarning shoxlari sindi, shuningdek, ko'plab olma va nok navlari hosilsiz bo'lib

chiqqan. Ob-havoning yozda haddan tashqari issiq bo'lishi esa olmalarning kasallanishiga, qurt tushib o'z ta'mini yo'qotishiga sabab bo'lgan.

Olmaning Belyi Zimniy Kalvil naviga tegishli bo'lgan daraxtlarga zang kasali tushib, olmalar qurtlashi va yilning oktyabr-dekabr oylari davomida daraxtlar shoxida chirib qolgan. O'sha yili Namangan uyezdi bog'larida Bolshoy Kasselskiy Renet, Ontario, Belfler, Bismark, Parmen, Zolotoy Zimniy kabi olma daraxtlari va ularning mevalariga ham zang kasali tushgandi[13.78-79]. Ontario-Amerika olma navi bo'lib, uning shakli Kanada reneti olmasiga o'xshash, mevasi 1 funtgacha (439gr) yaltiroq-qizil rangli, 7 yilda hosilga kirib, 6 pudgacha har bir daraxt meva bergan. 1908-yil Namangandagi tabiiy, ofat tufayli Ontario ham kasallikka chidamsiz bo'lib chiqqan.

"Turkiston to'plami"da Turkiston mintaqasida mevachilik, polizchilik, gulchilik sohasidagi yutuq va yangiliklar haqida ma'lumot beruvchi ko'rgazmalar (vistavka)da ham ishtirok qilish bilan bog'liq tarixiy voqealar bayoni keltirilgan. Ushbu yarmarka va ko'rgazmalarda meva bilan savdo qiluvchi savdogarlar, bog'larning ijarachilari ishtirok qilgan. Ular yangi navlarni yaratish, mevalarni saqlash va qutilarga joylashtirish tanlovida qatnashganlar. Ko'rgazma ishtirokchilarining faoliyatini baholash komissiyasi tarkibiga taniqli bog'bonlar kiritilgan. 1908-yilning 4-6 iyul va 7-14 sentyabr kunlarida Sankt-Peterburgda o'tkazilgan mevalar namoyishida Turkiston vakillari ham qatnashib, 1 ta katta oltin medal, 2 ta kichik oltin medal, 1 ta katta kumush medal, 4 ta kichik kumush medal, 8 ta bronza medal va ko'p miqdorda faxriy yorliqlar bilan taqdirlanishgan. Turkiston qishloq xo'jaligi tajriba stansiyasida parvarishlangan Velington, Rozoviy Razmarin, Bessarabiya tirolkasi, Oq qishki Valvin, Xarkov zeleni kabi olmalar ko'rgazmalarda keng shuhrat qozongan. Turkiston bog'bonlari bir yil oldin, ya'ni 1907-yil III-ko'rgazmada ham qatnashgan edilar. Bog'bonlardan K.Ya.Pobelyanskiy va A.A.Pleskovich namoyish etgan olma va nok navlari ko'rgazma ishtirokchilarining diqqatini jalb etgandi.

Xulosa o'rnida qayd etish mumkinki, XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkiston mintaqasiga olma, nok, shaftoli, o'rik, uzum singari mevali daraxtlarning o'nlab turlari kirib keldi. Olma va nokning 160 dan ortiq yangi navlari Turkiston viloyatlarida iqlimlashtirilish tajribasidan o'tkazildi. Ushbu sohada "havaskor bog'bon"larning xizmatlari beqiyos bo'lib, Yevropa va Amerika qit'asidan keltirilib mahalliy sharoitga iqlimlashtirilgan ko'pgina mevali daraxtlardan mo'l-ko'l hosil olinib, bu esa istiqbolda bog'dorchilik rivojida katta yutuqlar qo'lga kiritilishining muhim omili bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Г.Тарновский. Русская поселения в Закаспийской области//Туркестанский сборник. Том 419. -С.129-133.
2. Туркестанское плодоводство//Туркестанский сборник. Том 445. -С.97-99.
3. Агрономический съезд в Ташкенте//Туркестанский сборник. Том 500. -С.142-146.
4. Результаты анкеты по плодоводству//Туркестанский сборник. Том 500. -С.218-221.
5. Туркестанские плоды на Санкт-Петербургской выставки-ярмарки//Туркестанский сборник. Том 500. – С.173-181.
6. Известия о деятельности Туркестанского общества сельского озяйства//Туркестанский сборник. Том 500. –С.425-429.
7. С.Я.Бердин. Промышленный сад//Туркестанский сборник. Том 500. –С.727-729.
8. Промышленный сад С.Я.Бердина//Туркестанский сборник. Том 501.-С.723-727.
9. Василий Семичь. Из заметок крестьянина-садовода//Туркестанский сборник.Том.501. -С.736-739.
10. Слюсарев Н.// Садовладельцы Туркестана соединяйтесь//Туркестанский сборник. Том 501. -С.834-837.
11. Тимаев К. Садоводство и виноградарство в Фергане//Туркестанский сборник. Том 508. -С.192-198.

12. Туринский. Туркестанское садоводство//Туркестанский сборник. Том 508. - С.148-153.
13. Петренко А. О плодоводстве в Наманганском уезде в 1908 году//Туркестанский сборник. Том 536. -С.78-80.
14. Шредер Р. Вывоз Туркестанских фруктов в Оренбург-Ташкентской железной дороги//Туркестанский сборник. Том 536. -С.123-126.
15. Н.П.Верховский. Вывоз сущенных фруктов и виноградного вина//Туркестанский сборник. Том 536.-С.269-274.
16. Haitov J. Distribution of new varieties of grain crops suitable for the natural climatic conditions of Uzbekistan //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – Т. 389. – S. 03007.
17. Haitov J. On the history of the activity of scientific institutions and stations in growing new crop varieties in Uzbekistan //BIO Web of Conferences. 2024. –Т. 84. –С.01038.